2025-yil 29-maydagi 424-T sonli buyruqqa asosan “Sanoat texnologiyalari” fakulteti Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi ta’lim yo‘nalishining 311-21, 312-21 va 314-21 guruhlari talabalari uchun 2-iyundan 14-iyungacha “JIZZAKH TEXTILE” MCHJ XK hamda KOJ “EZGU NIYAT” MCHJlarda bitiruv oldi amaliyotlari rejalashtirilgan. Guruh rahbarlari etib A.Kushimov (311-21), J.G‘ofurov (312-21) va E.Xolboyev (314-21) tayinlangan. 10-iyun kuni kafedra o‘qituvchisi B.Abbazov bilan birgalikda o‘rganish jarayonida ayrim kamchiliklar aniqlandi. Xususan, amaliyot rahbarlari tomonidan ichki buyruqlar rasmiylashtirilmagan va qatnashuv bo‘yicha qaydnomalar taqdim etilmagan. “JIZZAKH TEXTILE” MCHJ XK kadrlar bo‘yicha inspektorlari J.To‘ychiyev va M.Axmatovalarning ma’lumotiga ko‘ra, talabalar amaliyotga qatnashmagan. KOJ “EZGU NIYAT” MCHJ ish yurituvchisi S.To‘ychiyev bergan ma’lumotlarga ko‘ra esa, faqat Hakimova Fotimaning ushbu korxonada ishlashi tasdiqlandi, qolgan talabalar bilan uchrashish imkoni bo‘lmadi. Mazkur holat bo‘yicha fakultet dekani va kafedra mudiri ma’lumot kiritildi.

2025-yil 29-maydagi 424-T sonli buyruqqa asosan “Sanoat texnologiyalari” fakulteti Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi ta’lim yo‘nalishining 311-21, 312-21 va 314-21 guruhlar talabalar uchun 2-iyundan 14-iyungacha “JIZZAKH TEXTILE” MCHJ XK hamda KOJ “EZGU NIYAT” MCHJlarda bitiruv oldi amaliyotlari rejalashtirilgan. Guruh rahbarlari etib A.Kushimov (311-21), J.G‘ofurov (312-21) va E.Xolboyev (314-21) tayinlangan. 10-iyun kuni kafedra o‘qituvchisi B.Abbazov bilan birgalikda o‘rganish jarayonida ayrim kamchiliklar aniqlandi. Xususan, amaliyot rahbarlari tomonidan ichki buyruqlar rasmiylashtirilmagan va qatnashuv bo‘yicha qaydnomalar taqdim etilmagan. “JIZZAKH TEXTILE” MCHJ XK kadrlar bo‘yicha inspektorlari J.To‘ychiyev va M.Axmatovalarning ma’lumotiga ko‘ra, talabalar amaliyotga qatnashmagan. KOJ “EZGU NIYAT” MCHJ ish yurituvchisi S.To‘ychiyev bergan ma’lumotlarga ko‘ra esa, faqat Hakimova Fotimaning ushbu korxonada ishlashi tasdiqlandi, qolgan talabalar bilan uchrashish imkoni bo‘lmadi. Mazkur holat bo‘yicha fakultet dekani va kafedra mudiri ma’lumot kiritildi.

2025-yil 1-apreldagi 224-T sonli buyruqqa asosan Kimyoviy texnologiya kafedrasining 635-20 KT guruhidan 6 nafar talaba “Jizzax akkumulyator zavodi” AJga, 7 nafar talaba “Jizzax plastmassa” AJga, shuningdek 635A-20 KT guruhidan 4 nafar talaba “Zenatkor temir-beton buyumlari” MCHJga 8-apreldan 4-maygacha bo‘lgan muddatda malaka amaliyotini o‘tash uchun yuborilgan. Guruh rahbarlari etib 635-20 KT guruhiga J.Turakulov, 635A-20 KT guruhiga Sh.Umarov tayinlangan. 3-may kuni amaliyot jarayonlarini nazorat qilish maqsadida buyruqda belgilangan korxonalarga amaliyot rahbari J.Turakulov bilan birgalikda amaliyot jarayoni o‘rganildi. Tekshiruv davomida amaliyot rahbarlari tomonidan talab etiladigan ichki buyruqlar, talabalar davomati bo‘yicha hujjatlar hamda amaliyot kundaliklari taqdim etilmagani aniqlandi. Shuningdek, talabalar bilan bevosita uchrashish imkoniyati ham bo‘lmadi. E’tiborli jihati shundaki, bu kamchiliklar yuzasidan amaliyot rahbarlariga bir necha marotaba ogohlantirish berilgan bo‘lsa-da, zarur hujjatlar taqdim etilmadi. Ushbu holat talabalarning amaliyot jarayonida ishtiroki yuzasidan shaffoflikni ta’minlash va natijalarni baholashda jiddiy to‘sqinlik qilmoqda. Mazkur vaziyat fakultet dekani va kafedra mudiriga ma’lum qilinib, kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha bildirishnoma kiritildi.

Sanoat texnologiyalari fakulteti, “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabalar 2025-yil 28-apreldan bitiruv oldi amaliyotiga chiqarilgan. Biroq institut tomonidan amaliyot bo‘yicha rasmiy buyruq 3 kun kechikib chiqarilgan.

Transport fakulteti “Umumtexnika fanlari” kafedrasi bo‘yicha ham shunga o‘xshash holat kuzatildi. Kafedra mudiri Bo’tayev Ruslan tomonidan 2- va 3-kurs

talabalarining amaliyotga chiqishi uchun zarur bo'lgan buyruq tizimga o'z vaqtida kiritilmaganligi sababli, institut tomonidan rasmiy buyruq bir hafta kechikib chiqarilgan. Amaldagi tartibga ko'ra, amaliyotga oid buyruq kamida bir oy oldin tizimga kiritilib tayyorlanishi lozim. Biroq mazkur talabga rioya qilinmagan. Shu sababli talabalar amaliyotga chiqishlaridan avval amaliyot oldi yig'ilishlari o'tkazilmagan va buyruq mavjud bo'lmagani uchun ular bilan rasmiy tanishtirish ham amalga oshirilmagan. Mazkur masala bo'yicha fakultet dekaniga ma'lumotnoma kiritilgan.

2025-yil 11-iyun kuni Jizzax shahri A-sanoat hududida faoliyat yuritayotgan "Global Optical Communication Uzbekistan" MChJ QK tomonidan institut rektoriga telefon orqali murojaat qilinib, institut talabalarining amaliyotga o'z vaqtida qatnashmayotganligi ma'lum qilindi. Mazkur holatga aniqlik kiritish maqsadida korxonada bo'lib, amaliyot jarayonlari o'rganildi. Natijada, Kimyoviy texnologiya ta'lim yo'nalishining 3-kurs 701-22, 710-22 va 2-kurs 701-23 guruh talabalaridan ayrimlari amaliyotga o'z vaqtida qatnashmayotganligi tasdiqlandi. Mazkur holat yuzasidan amaliyot rahbarlari J. Bazarova, D.Saidmirziyayeva va A. Abrayevlar bilan amaliyot bazasida ishlab chiqarish bo'lim boshlig'i G'.Bobobekov amaliyot jarayonlari nazorat qilindi. Amaliyotga qatnashish bo'yicha davomat o'rganildi, talabalarning amaliyotga qatnashmagan kunlari aniqlandi, qoldirgan kunlarini bartaraf etish bo'yicha grafik tuzib berildi, kamchilikka yo'l qo'ygan o'qtuvchilardan tushuntirish xatlar olindi. Muammolar bartaraf etildi, nazoratga olindi korxona ishlab chiqarish bo'lim boshlig'i institut rektoriga ijobiy o'zgarishni ma'lum qildi.

Joriy yilning 24-maydagi 408-T hamda 4-iyundagi 443-T-sonli buyruqlarga asosan "Transport muhandisligi" fakultetining 501-23 TL, 510-23 TL, 501-22 TL va 510-22 TL guruhlarida talabalar uchun "Erudit trans" MCHJ, "Jizzax avtotrans logistika" MCHJ, "Makon M" MCHJ va "Sangzor qurilish" MCHJlarda malakaviy va ishlab chiqarish amaliyotlarini o'tish rejalashtirilgan.

Mazkur amaliyotlar 2-kurs talabalar uchun 2025-yil 26-maydan 4-iyulgacha, 3-kurs talabalar uchun esa 29-maydan 16-iyulgacha belgilangan. Amaliyot rahbarlari etib 501-23 TL guruhiga S. Po'latov, 510-23 TL guruhiga S. Qosimov, 501-22 TL va 510-22 TL guruhlariga Z. Axmedovlar tayinlangan.

Shuningdek, 2025-yil 30-may kuni 501-21 TL va 510-21 TL guruhlarida 4-bosqich talabalarning bitiruv oldi amaliyoti kafedra mudiri G'. Mamayev bilan nazorat qilindi. Amaliyot rahbari X. Tagayev amaliyot obyektida bo'lmaganligi sababli talabalar bilan uchrashish va monitoring o'tkazish imkoniyati bo'lmadi. Amaliyot jarayonlarining tashkil etilishi va nazorati bo'yicha belgilangan tartibga qat'iy rioya etilmagan. Mazkur holatlar yuzasidan fakultet dekaniga bildirishnoma kiritildi.

2025-yil 25-iyun kuni “Jizzax avtoshoxbekati” MCHJ korxonalariga kafedra o‘qtuvchisi S. Po‘latov bilan birgalikda amaliyot jarayoni nazorat etilganda, amaliyot rahbari Z.Axmedov tomonidan korxona ichki buyrug‘i rasmiylashtirilmagan, talabalar tomonidan amaliyotda qatnashuv holatini tasdiqlovchi qaydnoma amaliyot rahbari tomonidan taqdim etilmaganligi aniqlandi.

DUAL TA’LIM SHAKLIDAGI AMALIYOTLAR

2024-2025 o‘quv yili davomida institutimizda dual ta’lim tizimi asosida bir qator korxonalarda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi.

Xususan, **Energetika muhandisligi fakultetining** 3-4-bosqich talabalari o‘zlarining nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida haftasiga bir kun ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg‘ulotlarda qatnashdilar. Mashg‘ulotlar Jizzax shahridagi “Sh. Rashidov to‘qimachilik kombinati” MCHJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Jizzax viloyat filiali, “Qaliya texnik xizmat” MChJ hamda “Transformer Electric Energy” MChJlarda tashkil etildi.

Sanoat texnologiyalari fakulteti, Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta’lim yo‘nalishining 3-4-bosqich talabalari bahorgi semestr davomida Jizzax viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasida dual ta’lim shaklida amaliy mashg‘ulot o‘tadilar.

Transport muhandisligi fakulteti, Transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishining 3-bosqich 71 nafar talabasi 2025-yilning 24-martidan 25-iyuniga qadar “ADM Jizzakh” MChJ va “BYD Uzbekistan Factory” MChJ QK avtomobil ishlab chiqarish zavodlarida amaliy mashg‘ulotlarni belgilangan muddatda o‘tadilar.

Amaliyot jarayoni institutning Amaliyot bo‘limi tomonidan muntazam nazorat qilindi. Talabalar va korxona vakillarining fikrlari tahlil qilindi, ushbu tizim nazariy bilimlarning amaliy ko‘nikmaga aylanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

HAQ TO‘LANADIGAN AMALIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-yanvardagi 11-sonli qarori va nizomiga, shuningdek, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 11-yanvardagi 9-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida institut rektorining 2024-yil 13-yanvardagi 7-AF-sonli buyrug‘i ishlab chiqilib, ijroga yo‘naltirilgan.

- Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat texnika texnologiyalari kafedrasida bo‘yicha 2024-2025-o‘quv yilida 331-21 hamda 332-21 OOT guruhlarida 2025-yil 27-yanvardan 10-mayga qadar bitiruv oldi amaliyotida “Iruskon” MChJda Odilova Nasiba Abdulla qizi, Yangiboyeva Ozoda Maxsudboy qizi, Omonov Shodiyor Dilmurod o‘g‘li, Tojiboyeva Oysumor Adixamjon qizi, Alibekova Dinara Ismatulla qizi, Ubaydullayeva Muxlisa Nurullo qizi, Zafurova Dilnoza Akbarovnalardan oyiga

har bir talaba 3 640 000 soʻmdan 4 oy 14 560 000 soʻmdan ragʻbatlantirildi. 331-21 OOT guruh talabasi Amonova Xolidaxon Kamol qizi “Pure Naturey Oils” MChJda oyiga 577500 soʻmdan 4 oyga 2310000 soʻm ragʻbatlantirildi. 332-21 OOT guruh talabalari Murodova Madina Jasur qizi hamda Sobirova Marjona Juman qizi “SAMANDAR MILK FOODS” OKda oyiga 1 500 000 soʻmdan 4 oy 6 000 000 soʻmdan ragʻbatlantirildi.

- Energetika va elektr texnologiyasi kafedrasidan 21 nafar talabaga institut huzuridagi muqobil energiyalarni tadbiq etish ilmiy-amaliy markazda haq toʻlanadigan amaliyot tashkil etilgan va roʻyxat vazirlik jamgʻarmasiga taqdim etilgan. Amaliyot rahbari etib prof. U. Yuldashev tayinlangan.

- Qurilish materiallari va konstruksiyalari kafedrasidan 10 nafar talaba bilan dastlabki va 3 tomonlama shartnomalar imzolaniib, 61-son qarorga muvofiq vazirlikka taqdim etilgan. Ushbu ishlar dots. O. Berdiyev tomonidan tashkil etilgan.

TAKLIFLAR

1. Institutda tahsil olayotgan Kibersport fakultetining Menejment, Buxgalteriya hisobi va audit taʼlim yoʻnalishlarini 1, 2, 3-bosqich talabalariga oʻquv jarayoni grafigida amaliyot rejalashtirilmagan. Talabalarning taklif va istaklarini inobatga olib va institut sharoitidan kelib chiqqan holda amaliyotni oʻquv jarayoni grafigiga kiritish va yoʻlga qoʻyish.

2. Talabalar uchun haq toʻlanadigan amaliyotlarni tashkillashtirishda mutaxassislik kafedralari mudirlarining masʼuliyatini oshirish.

3. Amaliyotga rahbar tayinlashda kafedraning tajribali va salohiyatli, korxona (tashkilot)lar orasida institut obroʻsini targʻib eta oladigan, amaliyot obʼyektlarida talabalarning amaliyot oʻtashlarini mazmunli tashkil etadigan professor-oʻqituvchilari tarkibidan tayinlanishini yoʻlga qoʻyish.

4. Institut talabalarini talab va istaklariga asosan, Respublikaning turli viloyatlaridagi sohaga oid ishlab chiqarish korxonalariga, nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliyot davrida ekskursiyalar tashkil etish maqsadga muvofiq.

5. Dual taʼlim shaklini kengaytirish, xususan talabalar institutda oʻqish davomida olgan nazariy bilimlarini korxonalarda maʼlum muddat amaliyotda boʻlish imkonini beruvchi tizimlarni joriy qilish.

6. 2025-2026 oʻquv yilidan boshlab institutdagi taʼlim yoʻnalishlarini bosqichma-bosqich dual taʼlim asosida oʻqitishni hamkor korxona va tashkilotlarda tashkil etish.

7. Texnopark, muhandislik maktablari kabi markazlardan talabalar, ilmiy loyihalar bilan birga amaliyot imkoniyatini oshirish uchun foydalanishni tashkil etish.

**Kun tartibidagi masalani o'rganib kengash
QAROR QILADI:**

1. Institutda 2024/2025-o'quv yilida o'tkazilgan malakaviy va diplom oldi amaliyoti natijalarining tahlili, amaliyotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha yangi vazifalar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Fakultet dekanlari va mutaxassislik kafedra mudirlariga:

- Korxona va tashkilotlarda haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish joriy o'quv yilidan boshlab barcha mutaxassislik kafedralarida ta'minlansin;
- amaliyot bo'yicha hisobotlarni rasmiylashtirish va ularni qabul qilish Nizom doirasida maxsus hay'at tomonidan amalga oshirilsin va natijalar to'g'risida uch kun muddat ichida hisobot topshirilishi ta'minlansin;
- 2024/2025 o'quv yili amaliyot hisobotlari mutaxassislik kafedralari kesimida institut arxiviga topshirilishi ta'minlansin;
- yangi 2025/2026 o'quv yili malakaviy amaliyotlari uchun nufuzli korxonalar bilan shartnomalar tuzish ishlarini o'quv jarayoni grafigi asosida tashkil etilsin;

3. Talabalarining yangi o'quv yili amaliyotiga tayyorgarlik ko'rish, amaliyot davrida muntazam ravishda nazorat olib borishni institut "Ta'lim sifatini nazorat qilish" va "Talabalar amaliyoti bo'limi" zimmasiga yuklatilsin;

4. Institutda o'quv-tanishuv, ishlab-chiqarish, bitiruv oldi va dual ta'lim shaklidagi amaliyotlarni kafedralar kesimida tashkil etish va o'tkazish holatini amaliyot ob'yektlarida (hududlar kesimida) nazorat qilish, amaliyotda qatnashayotgan talabalar davomatini nazorat qilib borishni tashkil etish, hamda tahlil natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlab, rahbariyatga taqdim etib borish ishlari "Talabalar amaliyoti bo'limi" boshlig'i I.Meliyevga yuklatilsin. Muddat amaliyot o'tish davrida.

5. Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilish o'quv ishlari bo'yicha prorektor M.Ochilov zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI:

Kun tartibida masala yuzasida institut Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limining 2024-2025-o'quv yilida amalga oshirilgan ishlar, aniqlangan korrupsiyaviy sohalar, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida. Institut Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i X.Xaitov hisobot berdi.

2024/2025-o'quv yili davomida institut rahbariyati va bo'lim xodimlari birgalikda OTMning professor-o'qituvchilari, xodimlari va talaba-yoshlari ishtirokida korrupsiya va unga oid huquqbuzarliklarni oldini olish mavzusida 48 marotaba profilaktik-tushuntirish tadbirlari, davra suxbatlari o'tkazildi. O'tkazilgan

tadbirlarda **1146 nafar** professor-o'qituvchilar va ishchi-xodimlar, hamda **11560 nafar** talaba-yoshlar ishtirok etdi. Tadbirlar davomida ishtirokchilarga Korrupsiyaning kelib chiqish sabablari, uning oqibatlarini tug'risida tushunchalar berildi.

O'tkazilgan tadbirlar Jizzax viloyat KQK hududiy kengashi rasmiy veb saytlarida, institutning ijtimoiy tarmoq kanallarida hamda vazirlikning KQK bo'limi telegram boti kanallarida yoritib kelinmoqda.

- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 23 apreldagi 3/7-120 sonli topshirig'i ijrosini ta'minlash bo'yicha institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida muntazam ravishda HEMIS dasturi orqali institut professor-o'qituvchilari va talabalari orasida anonim so'rovnomalar o'tkazilmoqda. O'tkazilgan so'rovnomalar natijalari tahlil qilinib, OTM rektoriga ma'lumot-ma'ruza taqdim qilinib, Kengash majlislarida professor-o'qituvchilar hamda bo'limlar boshliqlariga yetkazilmoqda.

- 2024/2025-o'quv yili davomida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining bo'yruqlariga asosan xududlarda o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlari attestatsiyasining test sinovlari institut Axborot resurslari markazida o'tkazildi. Institut KQK komplaens nazorat bo'limi xodimlari vazirlikning mas'ul xodimlari bilan xamkorlikda o'tatilgan test sinovlari jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashda ishtirok etdilar.

- bo'lim xodimlari tomonidan ishga kiruvchi nomzodlar, ya'ni professor-o'qituvchilar, ishchi-xodimlar bilan suhbatlar o'tkazilmoqda. Suhbat davomida ularga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati, institut odob-axloq kodeksi, xodimning yillik deklaratsiyani to'ldirish jarayonida manfaatlar to'qnashuvini mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida arizaning mazmuni va har biriga kelgusida institutda "Korrupsiyasiz soha" loyihasi doirasida olib borilayotgan ishlarda faol ishtirok etishlari xamda lavozim yo'riqnomasi bo'yicha yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishlari xususida ogohlantirilib, tilxatlar yozdirib olinmoqda.

- Korrupsiyaviy holatlar to'g'risida anonim mazmundagi ma'lumotlarni pedagog-xodimlar, talaba-yoshlardan kelib tushishiga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida "**Faqatgina birga korrupsiyani to'xtata olamiz**" rukni ostida bo'lim xodimlarining telefon va telegram aloqa kanallari yozilgan e'lonlar o'quv binolarining ko'pchilikka ko'rinarli bo'lgan joylariga joylashtirilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasasi o'quv binolarining kirish qismlarida KQK bo'limi xodimlari telefon raqamlari hamda 3 dona "**Adolat quti**"lari o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining o'rinbosarining 2025-yil 21-apreldagi 03-23-1112-sonli topshirig'iga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar

vazirligi o'rtasida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etish hamda "Korrupsiyadan holi" muhitni yaratish doirasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan "Yo'l-xarita"sida "Yosh avlod angiga halollik qadriyatlarini singdirish va korrupsiyaga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida OTMlar talabalarini maxsus dasturlar asosida ta'lim olishlarini tashkillashtirish vazifasi belgilangan edi. Topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida, Jizzax politexnika institutining talabalarini 2025-yil davomida Virtual akademiyada o'qitish bo'yicha taqsimot ishlab chiqilib, OTM rektori tomonidan tasdiqlangan. O'tgan o'quv yilining may oyida **1683 nafar**, iyun oyida **1300 nafar** talabalar Virtual akademiya o'quv kurslarida tahsil oldilar. Yangi 2025/2026-o'quv yili davomida talabalarni Virtual akademiya o'quv kurslarida tahsil olishlari davom ettirilmoqda (Sentabr oyida **923 nafar**, Oktabr oyida (Magistratura bo'limi hamda sirqi ta'lim talabalari bn birgalikda)) **-2419 nafar** talabalar o'quv kurslarida tahsil oldilar.

2025-yil yanvar-fevral oylarida OTMning professor-o'qituvchilari va xodimlari Virtual akademiya masofaviy o'quv kurslarida tahsil oldilar va 46 ta maxsus sertifikatlariga ega bo'ldilar.

2025/2026-o'quv yilning sentabr oyida Virtual akademiya masofaviy o'quv kurslarida tahsil uchun shartnoma tuzilib, institutning 8 nafar rahbar xodimlari (prorektorlari va bo'limlar boshliqlari) o'qishlari tashkil etilib, tahsil olgan xodimlar tomonidan 21 ta maxsus sertifikatlar olindi.

2. O'quv yilida OTMda korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi tomonidan aniqlangan korrupsion, ta'magirlik xolatlari bo'yicha **8 marotoba** xizmat tekshiruvlari va o'rganishlar o'tkazilib, natijalariga ko'ra, institut rektori vakolati doirasida ayrim professor-o'qituvchilarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilgan, **jumladan:**

- Olingan ma'lumotlarga asosan yakuniy nazoratlarga kelmagan talabalarga HEMIS platformasida baholar qo'yilganligi bo'yicha o'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijasiga ko'ra Kimyo muhandisligi fakulteti dekani M.Mirzabekov, dekan o'rinbosarlari O'.Suyunov va D.Xushvaqtovg'a nisbatan OTM rektorining 21.10.2024 yildagi 889-sht sonli buyrug'i bilan **"Xayfsan"** intizomiy jazo chorasini qo'llanildi.

- Institutda talabalarning darslarga qatnashish jarayonlarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijasiga ko'ra Kibersport, Transport, Energetika muhandisligi lavozimdagi shaxslariga OTM rektorining

18.07.2024 yildagi 578-sht sonli buyrug‘i bilan **“Xayfsan”** intizomiy jazo chorasi qo‘llanildi.

- Institutda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish mexanizmlari tomonidan olingan ma‘lumotga ko‘ra qurilish materiallari va konstruksiyalari kafedrasida dotsenti Shodmonov A. yakuniy nazoratlar jarayonida ta‘magirlikka yo‘l qo‘yib talabalardan fanlardan mustaqil ishlarni (sanoat korxonasi samaradorligini) talabalar o‘rniga bajarish evaziga guruh sardorlari orqali talabalardan pul mablag‘lari olgan. O‘tkazilgan xizmat tekshiruvi xulosasiga ko‘ra A.Shodmonov va Z.Barnoevaga nisbatan institut rektorining 31.01.2025 yildagi 105-sht sonli buyrug‘i bilan **“Xayfsan”** intizomiy jazo chorasi qo‘llanildi.

- Olingan ma‘lumotlarga asosan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi jarayonida, institut yoshlar ittifoqi bosh yetakchisi Suvonov Namoz Shodibek o‘g‘li ayrim yetakchi va koordinatorlardan pul mablag‘larini yig‘ib olish holatlari bo‘yicha xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, xulosasiga ko‘ra N.Suvonovga nisbatan institut rektorining 24.03.2025 yildagi 187-T sonli buyrug‘i bilan Talabalar safidan chetlatish intizomiy jazo chorasi qo‘llanildi.

- Tasdiqlangan dars jadvalidagi dars mashg‘ulotlarini sababsiz o‘tilmaganlik yuzasidan o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi natijasiga ko‘ra Kimyoviy texnologiya kafedrasida professori Ikrom Ro‘zmatovga o‘z lavozim yo‘riqnomasida keltirilgan vazifalarga sovuqqonlik bilan qaraganligi uchun OTM rektorining 19.03.2025 yildagi 274-sht sonli buyrug‘i bilan **“Xayfsan”** intizomiy jazo chorasi qo‘llanilgan.

- Institut professor-o‘qituvchilarni HEMIS tizimiga dars mashg‘ulotlarini o‘z vaqtida belgilamaganlik holatlari bo‘yicha TSNQ bo‘limi xodimlari bilan birgalikda xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, HEMIS tizimiga o‘tkazilgan mashg‘ulotlar o‘z vaqtida belgilamagan **22 nafar** professor-o‘qituvchilarga nisbatan institut rektori vakolati doirasida intizomiy choralar ko‘rilishi bo‘yicha 04.03.2025 yilda OTM rektoriga taklif kiritilgan va tegishli choralar ko‘rilgan.

- Institut professor-o‘qituvchilarni HEMIS axborot tizimiga dars mashg‘ulotlarini o‘z vaqtida belgilamaganlik holatlari bo‘yicha xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi xulosasiga ko‘ra HEMIS axborot tizimiga o‘tkazilgan mashg‘ulotlar o‘z vaqtida belgilamagan **7 nafar** (*O.Qosimov, I.Abbazov, G.Orziqulova, L.Abdusamatova, J.Tojiev, Sh.Xudoyorov, O.Xolmurotov*) professor-o‘qituvchilarga nisbatan institut rektorining 08.05.2025 yildagi 422-sht sonli buyrug‘i bilan **“Xayfsan”** intizomiy jazo chorasi qo‘llanildi.

O‘tkazilayotgan tadbirlarga qaramasdan, xozirgi kunda ham institutda korrupsiya holatlari aniqlanmoqda., Jumladan: joriy yilning oktabr oyida olingan ma‘lumotga ko‘ra, 3-oktabr kuni 5-bosqich Sirtqi ta‘lim Transport vositalari

muhandisligi yo‘nalishi o‘quv guruhlaridan “Hayot havfsizligi” fanidan yakuniy nazorat olinadi, fan o‘qituvchisi ekologiya va mehnat muhofazasi kafedrasida dotsenti Bobomurodov Zokir Abduqaxxorovich, guruh sardorlari orqali talabalardan pul mablag‘lari olib, imtihonga kelmagan va qatnashmagan talabalarga baholar qo‘ygan. O‘tkazilgan xizmat tekshiruvi xulosasiga ko‘ra Z.Bobomurodov tomonidan talabalardan olgan pullari qaytarilib, unga nisbatan institut rektorining 09.10.2025 yildagi 865-sht sonli buyrug‘i bilan “Mehnat shartnomasini bekor qilish” intizomiy jazo chorasi qo‘llanildi.

3. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 23 apreldagi 3/7-120 sonli topshiriq xati ijrosini ta‘minlash bo‘yicha institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va o‘z vaqtida oldini olish maqsadida joriy yilning **13-20 fevral, 26-29 mart, 17-21may** kunlari HEMIS dasturi orqali so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnomalar natijalari tahlil qilinib, OTM rahbariga ma‘lumotnoma taqdim qilindi.

4. Hisobot davrida ishga kirmoqchi bo‘lgan professor-o‘qituvchilar hamda xodimlar bilan (*50 nafar*) suhbatlar o‘tkazildi. Suhbat davomida ularga O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati, institut odob-axloq kodeksi, xodimning yillik dekloratsiyani to‘ldirish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvini mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida arizaning mazmuni va har biriga kelgusida institutda “Korrupsiyasiz soha” loyihasi doirasida olib borilayotgan ishlarda faol ishtirok etishlari xamda lavozim yo‘riqnomasi bo‘yicha yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishlari xususida ogohlantirildi va tilxatlar yozib olindi.

Yangi 2025/2026-o‘quv yili boshlanishidan oldin **27-30 avgust** kunlari barcha fakultetlar dekanat xodimlari va kafedralar professor-o‘qituvchilaridan (*jami 460 nafar*) kafolat xatlari va tilxatlar olindi.

5. Korrupsiyaviy holatlar to‘g‘risida anonim mazmundagi ma‘lumotlarni pedagog-xodimlar, talaba-yoshlardan kelib tushishiga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida **“Faqatgina birga korrupsiyani to‘xtata olamiz”** rukni ostida bo‘lim xodimlarining telefon va telegram aloqa kanallari yozilgan e‘lonlar o‘quv binolarining ko‘pchilikka ko‘rinarli bo‘lgan joylariga joylashtirilgan, OTM o‘quv binolarining kirish qismlarida **“Adolat quti”**lari o‘rnatilgan. Adolat qutilari xar xaftaning shanba kunlari bo‘lim xodimlari tomonidan ko‘zdan kechirilib, kelib tushgan arizalar bo‘yicha OTM rektoriga qaror qabul qilish uchun ma‘ruza taqdim qilindi.

Xurmatli yig‘ilish ishtirokchilari, Sizlardan korrupsiyaviy holatlarni sodir etmasliklaringizni, sodir etilishiga sharoit yaratib qo‘ymasliklaringizni, bevosita tashabuskori yoki ishtirokchisi bo‘lib qolmasliklaringizni so‘rab qolamiz, aks xolda har bir aniqlangan nojo‘ya xatti-harakat jazosiz qolmaydi.

Kun tartibidagi masalani o'rganib kengash

QAROR QILADI:

1. Institut KQK komplaens nazorat tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i X.Xaitovning ma'ruzasi ma'lumot tariqasida qabul qilinsin.

2. OTM professor-o'qituvchilari, xodimlar va talabalar bilan korrupsion xatti-xarakatlar sodir etmasliklari bo'yicha muntazam ravishda profilaktik tadbirlar o'tkazilsin.

3. Doimiy ravishda OTM professor-o'qituvchilari, xodimlari va talabalar bilan anonim so'rovnomalar o'tkazilib, natijalari tahlil qilinib, institut rektoriga ma'lumotnomalar taqdim qilinsin.

4. OTM-da korrupsion xatti-harakatlar aniqlanganda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, ayibdorlarga nisbatan OTM rahbari vakolati doirasida qat'iy choralar ko'rish yoki yig'ilgan hujjatlarni huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim qilish bo'yicha takliflar kiritilsin.

5. Ushbu tadbirlarni amalga oshirilishini institut KQK komplaens nazorat tizimini boshqarish bo'limi xodimlari zimmasiga, nazoratni institut rektori zimmasiga yuklatilsin.

Turli masalalar.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi 5.1 - masala yuzasidan ilmiy kotib E.Urishbayev axborot berdi. Institut Muhandislik kommunikatsiyalari kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchisi Tursunov Mamatkul Karimovichning nomzodini 05.09.03 – “Issiqlik ta'minoti. Ventilyatsiya, konditsionerlash. Gaz ta'minoti va yoritish” ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvonini olish uchun hujjat topshirganligini ma'lum qildi. Dotsent ilmiy unvonini olish uchun kerakli hujjatlar taqdim etilganligini hamda ular OAK talablariga mos kelishini ta'kidladi. Topshirilgan hujjatlarning mazmun va mohiyati yig'ilish ishtirokchilariga tanishtirildi.

SO'ZGA CHIQDILAR

Dots. A.Berdikulov, dots. Sh.Musayev, dots. O.Berdiyev, dots. M.Mirzabekov, prof. J.Hamidov, dots. J.Nasriddinovlar ushbu masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini savol-javob orqali bildirdilar.

Yig'ilish ishtirokchilari institutdagi raqamlashtirilgan yopiq ovoz berish dasturi orqali ovoz berdilar.

Ovoz berish bo'yicha chiqqan natijalarni Kengash kotibi dastur orqali yig'ilish ishtirokchilariga tanishtirildi.

№	Nomzodning F.I.O	Berilgan ovozlar soni			
		Tarafdorlar	Qarshilar	Betaraflar	Buzilgan byulletenlar
1.	Tursunov Mamatkul Karimovich	58	-	-	-

Kun tartibidagi masalani o‘rganib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Institut Muhandislik kommunikatsiyalari kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchisi Tursunov Mamatkul Karimovichning nomzodini 05.09.03 – “Issiqlik ta’minoti. Ventilyatsiya, konditsionerlash. Gaz ta’minoti va yoritish” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoniga loyiq deb topilsin.

2. Institut Kengashining ushbu qarori O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga yuborilsin va institut Muhandislik kommunikatsiyalari kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchisi Tursunov Mamatkul Karimovichning nomzodini 05.09.03 – “Issiqlik ta’minoti. Ventilyatsiya, konditsionerlash. Gaz ta’minoti va yoritish” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini olishga tavsiya etilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish institut Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori J.Abdunazarov zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi 5.2 - masala yuzasidan ilmiy kotib E.Urishbayev axborot berdi. Institut Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchisi Yodgorova Hilola Isroilovnaning nomzodini 05.06.02- “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini olish uchun hujjat topshirganligini ma’lum qildi. Dotsent ilmiy unvonini olish uchun kerakli hujjatlar taqdim etilganligini hamda ular OAK talablariga mos kelishini ta’kidladi. Topshirilgan hujjatlarning mazmun va mohiyati yig‘ilish ishtirokchilariga tanishtirildi.

SO‘ZGA CHIQDILAR

Dots. A.Berdiqulov, dots. Sh.Musayev, dots. O.Berdiyev, dots. M.Mirzabekov, prof. J.Hamidov, dots. J.Nasriddinov, dots. G‘.Egamnazarovlar ushbu masala yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini savol-javob orqali bildirdilar.

Yig‘ilish ishtirokchilari institutdagi raqamlashtirilgan yopiq ovoz berish dasturi orqali ovoz berdilar.

Ovoz berish bo'yicha chiqqan natijalarni Kengash kotibi dastur orqali yig'ilish ishtirokchilariga tanishtirildi.

№	Nomzodning F.I.O	Berilgan ovozlar soni			
		Tarafdorlar	Qarshilar	Betaraflar	Buzilgan byulletenlar
1.	Yodgorova Hilola Isroilovna	58	-	-	-

Kun tartibidagi masalani o'rganib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Institut Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyai kafedrası dotsent vazifasini bajaruvchisi Yodgorova Hilola Isroilovnaning nomzodini 05.06.02-“To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoniga loyiq deb topilsin.

2. Institut Kengashining ushbu qarori O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga yuborilsin va institut Tabiiy tolalar va matoga ishlov berish texnologiyasi kafedrası dotsent vazifasini bajaruvchisi Yodgorova Hilola Isroilovnaning nomzodini 05.06.02-“To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini olishga tavsiya etilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish institut Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori J.Abdunazarov zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi 5.3 - masala yuzasidan ilmiy kotib E.Urishbayev axborot berdi. Institut Transport vositalari muhandisligi kafedrası dotsent vazifasini bajaruvchisi Xo‘janazarov Bobir Farmonovichning nomzodini 05.08.06 – “G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini olish uchun hujjat topshirganligini ma’lum qildi. Dotsent ilmiy unvonini olish uchun kerakli hujjatlar taqdim etilganligini hamda ular OAK talablariga mos kelishini ta’kidladi. Topshirilgan hujjatlarning mazmun va mohiyati yig‘ilish ishtirokchilariga tanishtirildi.

SO‘ZGA CHIQQILAR

Dots. A.Berdiqulov, dots.Sh.Suvonqulov, dots. O.Berdiyev, dots. M.Mirzabekov, prof. J.Hamidov, dots. J.Nasriddinov, dots. G‘.Egamnazarovlar ushbu masala yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini savol-javob orqali bildirdilar.

Yig‘ilish ishtirokchilari institutdagi raqamlashtirilgan yopiq ovoz berish dasturi orqali ovoz berdilar.

Ovoz berish bo‘yicha chiqqan natijalarni Kengash kotibi dastur orqali yig‘ilish ishtirokchilariga tanishtirildi.

№	Nomzodning F.I.O	Berilgan ovozlar soni			
		Tarafdorlar	Qarshilar	Betaraflar	Buzilgan byulletenlar
1.	Xo‘janazarov Bobir Farmonovich	58	-	-	-

Kun tartibidagi masalani o‘rganib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Institut Transport vositalari muhandisligi kafedrası dotsent vazifasini bajaruvchisi Xo‘janazarov Bobir Farmonovichning nomzodini 05.08.06 – “G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoniga loyiq deb topilsin.

2. Institut Kengashining ushbu qarori O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga yuborilsin va institut Transport vositalari muhandisligi kafedrası dotsent vazifasini bajaruvchisi Xo‘janazarov Bobir Farmonovichning nomzodini 05.08.06 – “G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini olishga tavsiya etilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish institut Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori J.Abdunazarov zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi 5.4 - masala yuzasidan ilmiy kotib E.Urishbayev axborot berdi. Institut Oliy matematika kafedrası dotsent vazifasini bajaruvchisi Ne‘matov Asliddin Rabbimqulovichning nomzodini 05.01.07 – “Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini olish uchun hujjat topshirganligini ma‘lum qildi. Dotsent ilmiy unvonini olish uchun kerakli hujjatlar taqdim etilganligini hamda ular OAK talablariga mos kelishini

ta'kidladi. Topshirilgan hujjatlarning mazmun va mohiyati yig'ilish ishtirokchilariga tanishtirildi.

SO'ZGA CHIQUV

Dots. Sh.Musayev, dots. O.Berdiyev, dots. M.Mirzabekov, prof. J.Hamidov, dots. J.Nasriddinov, dots. G'.Egamnazarovlar ushbu masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini savol-javob orqali bildirdilar.

Yig'ilish ishtirokchilari institutdagi raqamlashtirilgan yopiq ovoz berish dasturi orqali ovoz berdilar.

Ovoz berish bo'yicha chiqqan natijalarni Kengash kotibi dastur orqali yig'ilish ishtirokchilariga tanishtirildi.

№	Nomzodning F.I.O	Berilgan ovozlar soni			
		Tarafdorlar	Qarshilar	Betaraflar	Buzilgan byulletenlar
1.	Ne'matov Asliddin Rabbimqulovich	58	-	-	-

Kun tartibidagi masalani o'rganib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Institut Oliy matematika kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchisi Ne'matov Asliddin Rabbimqulovichning nomzodini 05.01.07 – “Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui” ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvoniga loyiq deb topilsin.

2. Institut Kengashining ushbu qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga yuborilsin va institut Oliy matematika kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchisi Ne'matov Asliddin Rabbimqulovichning nomzodini 05.01.07 – “Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui” ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvonini olishga tavsiya etilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish institut Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori J.Abdunazarov zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI:

Kun tartibidagi 5.5-masala yuzasidan ilmiy kotib E.Urishbayev axborot berdi. Institut Iqtisodiyot va menejment kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchisi Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'lining nomzodini 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvonini olish uchun hujjat

topshirganligini ma'lum qildi. Dotsent ilmiy unvonini olish uchun kerakli hujjatlar taqdim etilganligini hamda ular OAK talablariga mos kelishini ta'kidladi. Topshirilgan hujjatlarning mazmun va mohiyati yig'ilish ishtirokchilariga tanishtirildi.

SO'ZGA CHIQDILAR

Dots. J.Nasriddinov Dots. A.Berdiqulov, dots. Sh.Musayev, dots. O.Berdiyev, dots. M.Mirzabekov, prof. J.Hamidov, dots. G'.Egamnazarovlar ushbu masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini savol-javob orqali bildirdilar.

Yig'ilish ishtirokchilari institutdagi raqamlashtirilgan yopiq ovoz berish dasturi orqali ovoz berdilar.

Ovoz berish bo'yicha chiqqan natijalarni Kengash kotibi dastur orqali yig'ilish ishtirokchilariga tanishtirildi.

№	Nomzodning F.I.O	Berilgan ovozlar soni			
		Tarafdorlar	Qarshilar	Betaraflar	Buzilgan byulletenlar
1.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	58	-	-	-

Kun tartibidagi masalani o'rganib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Institut Iqtisodiyot va menejment kafedrası dotsent vazifasini bajaruvchisi Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'lining nomzodini 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvoniga loyiq deb topilsin.

2. Institut Kengashining ushbu qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga yuborilsin va institut Iqtisodiyot va menejment kafedrası dotsent vazifasini bajaruvchisi Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'lining nomzodini 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvonini olishga tavsiya etilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish institut Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori J.Abdunazarov zimmasiga yuklatilsin.

ESHITILDI.

Kun tartibidagi 5.6-masala yuzasidan Kengash kotibi E.Urishbayev so'z oldi va Kengashga taqdim etilgan institut Qurilish materiallari va konstruksiyalari kafedrası dotsenti N.Parsayeva tomonidan tayyorlangan “Vulqon tog' jinslariga

ishlov berish chiqindilarini kompleks qo'llab yashil sement kompozitlarini ishlab chiqish" nomli monografiyasi bilan tanishtirdi.

